

Gulnoza SHAMSIDDINOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti,
Ingliz filologiyasi kafedrasida tayanch doktoranti
E-mail:shamsiddinovag93@gmail.com

SamDCHTI, f.f.d. professor, Salohiy Dilorom Isomiddin qizi taqrizi asosida

INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY ADABIYOTIDA DETEKTIV JANR TAVSIFI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilida yozilgan detektiv hikoya, qissa, romanlarning boshlanishi, rivojlanib borishi va o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi yoritiladi. Maqolada ikki tildagi detektiv fantastika tilining pragmatik xususiyatlari tahlil va muhokama qilinadi. Maqolaning asosini detektiv adabiyotning lingvistik elementlarini tahlil qilish va aniq misollar bo‘yicha fikrlarni oydinlashtirish tashkil etadi. Detektiv hikoyalarning til xususiyatlarini tahlil qilish va o‘rganish, uning pragmatik xususiyatlariga alohida e‘tibor berishni talab qiladi. Bunda detektiv asar konteksti pragmatik tahlil ob‘ekti sifatida olinadi va tahlil jarayonida badiiy asar matnining muayyan lingvistik xarakterli xususiyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Detektiv janr, pragmatik muhit, detektiv ijod konteksti, sotsiopragsmatik tahlil, ingliz detektiv adabiyoti, o‘zbek detektiv adabiyoti, lingvistik adabiy komparativistika.

ОПИСАНИЕ ДЕТЕКТИВНОГО ЖАНРА В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В данной статье описывается зарождение, развитие и вхождение в узбекскую литературу детективов, рассказов, романов, написанных на английском языке. В статье анализируются и рассматриваются прагматические особенности языка двуязычного детектива. В основу статьи положен анализ языковых элементов детективной литературы и выяснение мнений на конкретных примерах. Анализ и изучение языковых особенностей детективных рассказов требует особого внимания к его прагматическим особенностям. В данном случае в качестве объекта прагматического анализа берется контекст детективного произведения, и в процессе анализа изучаются специфические языковые особенности текста художественного произведения.

Ключевые слова: Детективный жанр, прагматическая среда, контекст детективного творчества, социопрагматический анализ, английская детективная литература, узбекская детективная литература, лингволитературная компаративистика.

DESCRIPTION OF THE DETECTIVE GENRE IN ENGLISH AND UZBEK FICTION

Annotation

This article describes the beginning, development and entry of detective stories, short stories, novels written in English into Uzbek literature. The article analyzes and discusses the pragmatic features of the language of bilingual detective fiction. The basis of the article is the analysis of the linguistic elements of detective literature and the clarification of opinions on concrete examples. Analysis and study of language features of detective stories requires special attention to its pragmatic features. In this case, the context of the detective work is taken as the object of pragmatic analysis, and in the process of analysis, specific linguistic features of the text of the artistic work are studied.

Key words: Detective genre, pragmatic environment, context of detective work, sociopragsmatic analysis, English detective literature, Uzbek detective literature, linguistic and literary comparativistics.

Kirish. O‘zbek tilshunosligida detektiv asarlar, asosan, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilgan bo‘lib, lisoniy tadqiqi borasida jiddiy tadqiqotlar olib borilmagan, jumladan, detektiv asarlar tilini sotsiopragsmatik va gender aspektlarda o‘rganish tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelgan. Detektiv asarlarning til xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish detektiv asar tilining pragmatik xususiyatlariga ham alohida to‘xtalishni taqozo etadi. Bunda pragmatik tahlil obykti sifatida detektiv asar konteksti olinadi va tahlil jarayonida asar matniga xos muayyan lingvistik xususiyatlar o‘rganiladi. Bu esa tilning pragmatik xossa va xususiyatlariga to‘xtalib o‘tish va shu asosida detektiv asarlarning til elementlarini tahlil qilish hamda fikrlarni aniq misollar yordamida ochib berish orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolamda O‘zbek va Ingliz adabiyotida detektiv janrga qo‘l urgan O‘lmas Umarbekovning “ Yoz yomg‘iri” hamda Detektiv asarlar qirolichasi bo‘lmish Agata Kristining “ Al-Karnaku kemasidagi qotillik asarlarini tavsiflashga urindim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pragmatika tilshunoslikning yangi amaliy tarmog‘i sifatida tilning nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador muammolarini o‘rganuvchi soha sifatida shakllanmoqda [1]. Til o‘z sohibi bilan birgalikda o‘rganilar ekan, tabiiyki, uning maqbul tavsifi ham o‘zi mansub millat madaniyati va mentaliteti bilan birga olib qaralgandagina beriladi. Albatta, tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni namoyon etadi [2]. Pragmatik muhitning tarkibiy elementlari miqdoran rang-barangligi va keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Ya‘ni, shaxs, vaziyat, sharoit orasida turli omillar va ularning ta‘sir muhim ahamiyatga ega sanaladi. Shaxsning nutqiy holati jinsiy tafovut, fe‘l, saviya, ijtimoiy mavqe, yosh, ma‘lumoti, mutaxassislik, sog‘liq, kayfiyat kabi kabilar, xususan, grammatik shakllarning nutqiy voqelanishiga ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi.

Protessual komponent – detektivlik nutqining bilim sohasi, ya‘ni tushuntirish badiiy va lingvistik vositalar yordamida o‘quvchiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan matnning bir qismi. Bu yerda detektiv tushunchalar uchun dominant bo‘lgan konsepsion ish paydo bo‘ladi: sir, hal etish va jinoyat-jazo [3]. Detektiv nasrning odatiy xilma-xilligi janridagi o‘shish uning til komponentiga ta‘sir qila olmadi.

Detektivning janr sifatida asosiy xususiyati – bu qandaydir sirli voqea- hodisalarning mavjudligi, ularning holatlari noma‘lum va aniqlanishi kerak. Eng ko‘p, tez-tez tasvirlangan voqea bu jinoyatdir, jinoyiy bo‘lmagan voqealarni tergov qiluvchi detektivlar mavjud bo‘lsa ham (masalan, detektivjanriga tegishli bo‘lgan Sherlok Xolms haqidagi eslatmalarda, o‘n sakkiztadan beshtasida jinoyatlar mavjud emas).

Detektivning muhim xususiyati shundaki, voqeaning haqiqiy holatlari, tergov tugagunga qadar, har qanday holatda ham, o‘quvchiga yetkazilmaydi. Buning o‘rniga, o‘quvchi har bir bosqichda o‘z versiyalarini yaratish va ma‘lum faktlarni baholash

imkoniyatiga ega bo'lib, tergov jarayonida muallif e'tiborini jalb qiladi. Agar ish dastlab voqeaning barcha tafsilotlarini tavsiflash yoki voqeada noaniq, sirli hech narsa bo'lmasa, unda u allaqachon aniq detektiv voqeaga emas, balki tegishli janrlar (aktyorlik filmi, politsiya romantikasi va boshqalar)ga bog'liq bo'lishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Pragmatikada nafaqat badiiy adabiyot, balki adabiyot, san'at, radio, televidenie va boshqalarning ham pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu vositalarning o'quvchi yoki tomoshabinga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Shu sababli detektiv asarlarning pragmatik tahlil va tadqiq etilishi tilshunoslikning muhim bir qismi sifatida qabul qilinadi. Yozuvchi O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" romani kitobxonlar va adabiyot ahli tomonidan iliq kutib olindi. Sababi, asarda qalamga olingan mavzuning dolzarbligi, roman g'oyasining har jihatdan mustahkam asosga qurilganligi, qahramonlarning murakkab va fojeali hayot yo'llaridagi kurashlari har bir o'quvchini befarq qoldirmasligi aniq edi. Roman detektiv janrda yaratilgan.

Romandagi personajlar sistemasi tahliliga nazar tashlaganimizda turli xarakterdagi murakkab va oddiy obrazlarga duch kelamiz va har bir obrazning romanda tutgan o'rni juda ahamiyatli ekaniga guvoh bo'lamiz. Ularning ba'zi birlari bir qarashda ahamiyatsizdek tuyulsa-da, vaqti kelganda detektiv roman uchun eng zarur bo'lgan qimmatli ma'lumotlarni berishi yoxud asosiy voqealarning guvohi yoki ishtirokchisi bo'lib chiqishi mumkin. Quyida O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" asaridan olingan ba'zi misollar vositasida yuqoridagi fikrlarni dalillashga harakat qilaman.

Kampir qo'llari bilan olcha tagini kovlab, bir narsa oldi-da, o'rnidan turdi. Qanday borgan bo'lsa, xuddi shunday iziga qaytib rovonga yaqinlashdi. Qo'lidagi narsa loy yopishgan o'zbekcha pichoq edi.

Nima qilib qo'yding, ena! — dedi Olloyorov bo'g'iq ovozi bilan.

Xudo buyurganini!..

Kampir pichoqni rovonga tashladi va hassasini do'qillatganicha o'g'li yonidan o'tdi-da, joyiga borib chordana qurdi. Hayrat ichida qolgan Aliev uning sokin ko'zlarida yosh yaltirab ketganini ko'rdi.

Nega o'ldirdingiz? - o'zini tutolmay so'radi Aliev. Olloyorov boshini ko'tardi. Uning rangida rang qolmagan edi.

Erining ixtirosini olib kelishdan bosh tortdi. Keyin... Sizlarga xabar bermoqchi bo'ldi.

Alievning tushmoli to'g'ri chiqdi. Munisxon erining ixtirosi uchun shahid ketgan. Har holda vijdoni bor ekan. Engiltaklik qilibdi-yu, sotqinlik qilmabdi. [4]

"Yoz yomg'iri" va "Al karnaku kemasidagi qotillik" detektiv asarlari taqqoslanganda, O'lmas Umarbekovning syujet bayoni, voqealarni o'zaro bog'lash, asar kompozitsiyasiga daxldor muhim bir xususiyatni alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Bu jihat muallif-roviyning syujet voqealari orasida paydo bo'lish hodisasidir. Tabiiy ravishda ingliz tilida ham detektiv matnlar o'ziga xos sotsiopragsmatik va sotsiolingvistik xususiyat kasb etadi. Asar qahramonlarining xarakterida, nutqida va boshqa diskursiv xususiyatlarida sotsiopragsmatik va sotsiolingvistik tahlil elementlari ko'rinib turadi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi detektiv asarlarning sotsiolingvistik xususiyatlarida umumiy va farqli jihatlar uchraydi va bu ham tabiiy hodisalardandir. Ya'ni Sharq jamiyatidan farqli ravishda G'arb jamiyati yashash tarzi, ijtimoiy masalalarga qarashi, g'ayritabiiy jarayonlarga beradigan bahosi, kundalik foydalanadigan predmetlari va boshqalari bilan ham farqlanadi. Bu tafovutlar detektiv asar qahramonlari kommunikativ holatida ham kuzatiladi. Buni quyidagi misollardan ham anglashimiz mumkin. XX asr ingliz detektiv adabiyotini Agata Kristi asarlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi, ayniqsa, Erkyul Puaroni bilmaydigan odamning o'zi yo'q. Adibaning juda ko'p asarlarida jabrlanuvchilarning joniga oro kirgan bu qahramon har doim o'zining tashqi ko'rinishi, nihoyatda o'tkir aqli va sinchkov kuzatuvchanligi bilan hammani lol qoldirgan Adibaning bir qator kitoblarida ayol izquvar, Miss Marpl, ham qiziqarli hamda kutilmagan natijalarga boy detektiv asarlar paydo bo'lishining sababchisidir.

Tahlil va natijalar. Agata Kristining detektiv qissalarida, odatda, to kitob oxirigacha jinoyatchi kimligini bilib bo'lmaydi va har bir qahramon kitobxon shubxasida qolaveradi, shuning uchun ham qissalarni tezroq yakunlashga bo'lgan ishtiyoq ortib boraveradi. Men ushbu ilmiy ishimda aynan Agata Kristining "Al karnaku kemasidagi qotillik" asari va O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" asarini qiyosiy tahlil qilishni istadim. Puro obrazi mashhurlik bobida Sherlok Xolms darajasigacha yetib bordi. Buni kino ixlosmandlari, adabiyotsevarlar ham tasdiqlashi shubhasiz. Agata Kristining ushbu asarini ham hayrat to'la ko'zlarim bilan katta taassurotlar olgan holda mutolaa qildim. Asar davomida maza qilib Misr bo'ylab sayohat qildim. Misr piramidalari va ibodatxonalarida yurgandek bo'ldim. Nil daryosida "Al-Karnaku" kemasida sayohatda bo'ldim. Kema palubalaridan turib dengizni tomosha qildim. Bularning barchasi juda ajoyib va g'aroyib. Lekin "Al-Karnaku" kemasidagi bo'lgan qotilliklar esa ajoyib sayohatni tugatib dam olayotgan miyani ishlashga majbur qildi.

Aslida sayohat uchun yo'lga otlangan Puro insonlar taqdirining navbatdagi qarama-qarshiliklariga duch keladi. Yosh, sohibjamol va ayni paytda juda katta mol-mulk sohibasi Linnet Rijuey qanchalik aqlli, qanchalik tadbirkor bo'lmasin, hayot sinovlari, hayot imtihonlari oldida o'zini butkul yo'qotib qo'yadi. Turmushga chiqib baxtni orzu qilgan qiz taqdiri kutilmagan vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Asar syujeti qisacha shundan iborat: Linnet Rijuey go'zal, uddaburon, ishni ko'zini biladigan hamda juda badavlat honim. Otasining vafotidan so'ng juda katta boylik unga meros bo'lib qolgan. Uning dugonasi Jaklina de Belfort esa pulga muhoj, uning Simon Doyl ismli qallog'i bo'lib uni juda qattiq sevadi. Lekin qallog'i Linnet Rijueyga uylanadi. Yoshlar asal oyini o'tkazish uchun Misrga borishadi. "Al-Karnaku" kemasiga chiqishadi. Ular juda baxtli edi. Lekin Jaklina de Belfort izma-iz ularni ta'qib qilmoqda, rashk o'tida yonmoqda. Linnetni chakkasidan otib tashlashni xohlashini Puaroga aytadi. Bir kuni kemada kechqurun Jaklina mast bo'lguncha ichadi va bir nechta odamlar guvohligida kema barida Simon Doyni oyog'iga jahl ustida pistalet bilan otadi. Tasodifni qarangi, xuddi shu paytda shirin uyquda yotgan go'zal Linnet Rejueni ham chakkasidan otib, devorga esa "J" harfini yozib ketishadi. Barcha qotil deb Jaklinani taxmin qiladi. Lekin Jaklina bu paytda barda bo'lgan va Simon Doyni otgan. Puro ustamonlik bilan yechim topgan jinoyat ishi boshqalari kabi hayratlanarli, boshqalari kabi hayajonga boy, boshqalari kabi kutilmagan yechim bilan yakun topadi. Ya'ni Linnet Rejueni o'ldirish va uning boyligiga egalik qilish avvaldan rejalashtirilgan vahshiy qotillik edi. Uni turmush o'rtog'i Simon Doyl o'ldirgan va bu qotillikka sevgilisi Jaklinani ham sherik qiladi. Juda chalkash ushbu jinoyatni Erkyul Puro mohirlik bilan yechadi. Bundan barcha hayratga tushadi.

Asarni o'qir ekansiz, ishonchli bo'lgan odamlar ham jinoyatga aloqador bo'lishi mumkinligiga yana bir karra amin bo'larkansiz. Asar so'ngida badavlat bo'lish har doim ham baxtli bo'lishga sabab bo'lavermasligiga, qancha badavlat bo'lganingiz sari atrofingizda o'zingiz istamagan holatda dushmanlaringiz soni oshib borishiga amin bo'lasiz.

Detektiv ishqibozlariga tavsiya qilaman. Hayolga ham kelmaydigan yakunga ega bo'lgan ajoyib asar.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilganda, ingliz tilida yozilgan adabiyotlarda detektiv asarlar o'zbek adabiyotidagiga qaraganda ertaroq, XIX asr boshlarida, paydo bo'lgan, tez orada, nafaqat hikoya, balki qissa, romanlar shaklida ham davom etgan, bu kabi asarlarning yozilishiga katta turtki bo'lgan asosiy omillardan biri esa tibbiy ekspertizaning rivojlanishi va

ommalashishi edi. O'zbek adabiyoti detektiv janr ilk namunalari esa ancha kechroq, 100 yil o'tib, XX asr boshlarida, sobiq Sovet davrida, tuzumning qattiq bosimi, Sovet adabiyotining kuchli ta'siri ostida shakllangan. O'zbek, umuman, Sharq, adabiyoti prozasi shakllari, mavzulari, g'oyalari bilan uzoq zamonlardan beri G'arb adabiyoti nasridan farq qilib kelganligi, hikoya, qissa, roman kabilar o'zbek adabiyotiga XX asr boshlaridagina jadidlar tomonidan yangi tanishtirilganligi sababli, dastlabki detektiv nasr namunalari ham zamonaviy janr talablariga to'liq javob bermagan. Shunga qaramasdan, keyinchalik, asr o'rtalaridan o'tib, prozaning o'zbek adabiyotiga yangilik bo'lgan shakllari bilan birga detektiv janr ham rivojlanib bordi va durdona asarlar yaratildi. Hozirda har ikki adabiyotda ham janr yangi-yangi mavzular, muammolar muhokamasi bilan davom etmoqda.

Demak, detektiv fantastikani aniqlash hali hanuz ko'plab baxslarga sabab bo'lmoqda. Hatto uning tarixi ham munozarali bo'lib, tanqidchilar detektiv fantastika elementlarini eng qadimgi yunon tragediyalari va ingliz adabiyotining ulkan namoyondasi Chauser bilan bog'laydi. Muammoning bir qismi shundaki, "detektiv janr" toifasiga jinoyatchilik bilan bog'liq barcha fantastik unsurlar va izquvarlik jarayonlari, jinoyatni oshkor etish bilan bog'liq bo'lgan detektiv ish bilan cheklanishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Hakimov, M. 2001. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. dokt. ...diss. – Toshkent, – B. 14.
2. Mahmudov, N., Yo.Odilov. 2014. So'z ma'no taraqqiyotida ziddiyat. –Toshkent: Akademik nashr, – B.103.
3. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: "Universitet" 2005
4. http://www.krugosvet.ru/enc/kultura_i_obrazovanie/literatura/DETE_KTIV.html (data obrameniya: 25.06.2019).
5. O'lmas Umarbekovning "Tanlangan asarlari" II jildidan olindi. "Yoz yomg'iri" qissa.
6. Agata Kristi "Al-Karnaku kemasidagi qotillik".
7. Gulnoz Xalliyeva. Qiyosiy adabiyotshunoslik (Toshkent- Akademnashr 2020).